



SURXONDARYO VILOYATIDA CHAKANA VA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI



Dastlabki ma'lumot
2023- yil yanvar






CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumi ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023- yil 1- fevral holatiga chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **6 152** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevralga nisbatan **790** taga oshgan (o'sish sur'ati **114,7 %**). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **83** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **6 069** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YATTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatgichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar oyida respublikaning chakana savdo tovar aylanmasi **1 069,7** mlrd. so'mni tashkil etib, 2023- yilning yanvar oyiga nisbatan **84,1 %** ga yetdi.

Jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **37,8** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **88,8 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **1 031,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **84,0 %**), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **278,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **86,9 %**) tashkil etdi.



CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI


Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'limgan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	1069,7	84,1	37,8	88,8	1031,9	84,0
Termiz sh. <i>tumanlar:</i>	183,6	90,4	10,9	123,2	172,7	88,9
Oltinsoy	52,7	97,4	0,8	97,4	51,9	97,4
Angor	49,6	77,6	1,1	83,7	48,5	77,5
Bandixon	17,3	87,0	0,2	78,9	17,1	87,1
Boysun	47,7	80,0	0,4	99,7	47,3	79,9
Muzrabot	49,4	87,2	0,5	82,6	48,9	87,2
Denov	222,8	80,6	11,8	77,8	211,0	80,8
Jarqo'rg'on	58,3	79,3	2,4	86,2	55,9	79,0
Qumqo'rg'on	49,3	79,3	0,7	91,4	48,6	79,2
Qiziriq	51,1	86,8	0,4	44,4	50,7	87,5
Sariosiyo	44,4	86,7	0,7	85,6	43,7	86,7
Termiz	22,9	71,2	0,9	47,1	22,0	72,8
Uzun	55,0	89,8	0,8	100,5	54,2	89,7
Sherobod	63,6	80,9	2,9	68,7	60,7	81,6
Sho'rchi	102,0	85,1	3,3	113,8	98,7	84,4

2023- yilning yanvar oyida 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan viloyatning Oltinsoy (**97,4 %**), Termiz shahri (**90,4 %**), Uzun (**89,8 %**) va Muzrabot (**87,2 %**) tumanlarida chakana savdo tovar aylanmasining eng yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.

YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi
(yanvar, mlrd.so'm)



So'nggi 6 yillikda chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022- yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **109,9 %** ni yoki **1 195,1** mlrd. so'mni tashkil qildi.


**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)
(2022- yil, 2023- yil yanvar oy)**

**Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati
oylar kesimida (foizda)**



2023- yilning yanvar oyida o'sish sur'ati 84,1% ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi (foizda)



Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Denov tumanida **20,8 %** bilan **222,8 mld. so'mni** tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Bandixon tumani **1,6 %** bilan **17,3 mld. so'mni** tashkil etdi.

Viloyatimiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha hududlarda kamayish kuzatildi.

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **1 031,9** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **16,0 %** ga kamaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **96,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atga ega hududlar(foizda)




Yirik korxonalarning eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar (foizda)



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **11,2 %** ga kamaydi va **37,8** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiyligining **3,5 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, (foizda)



■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

■ Yirik korxonalar

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Qiziriq (**99,2 %**), Muzrabot (**99,1 %**) va Boysun (**99,1 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **3,5 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Termiz shahri (**6,0 %**), Denov (**5,3 %**), Sherobod (**4,6 %**), Jarqo'rg'on (**4,1 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foizda
Surxondaryo viloyati	385,5	82,2
Termiz sh.	952,7	87,3
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	283,5	95,3
Angor	356,7	76,0
Bandixon	216,6	84,6
Boysun	394,7	78,5
Muzrabot	332,0	85,4
Denov	550,6	78,7
Jarqo'rg'on	254,2	77,6
Qumqo'rg'on	200,0	77,7
Qiziriq	425,3	85,0
Sariosiyo	201,8	84,8
Termiz	281,2	69,7
Uzun	303,1	88,0
Sherobod	311,8	79,1


Sho'rchi

2023- yilning yanvar holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **385,5** ming. so'mni (2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **82,2 %**) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Termiz shahri (**952,7** ming. so'm), Denov (**550,6** ming. so'm) va Qiziriq (**425,3** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

Viloyat bo'yicha 2023- yilning yanvar oyida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **278,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning yanvar oyiga nisbatan **86,9 %** ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12 bozor va 12 bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **100,4** mlrd. so'mni (78,6 %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **178,2** mlrd. so'mni tashkil etdi (**92,4 %**).

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi mlrd. so'm



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, (foizda)




UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.



Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar taylanmasi o'sish sur'ati, foizda



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdag'i qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rirlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan, savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.

UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	278,6	86,9	100,4	78,6	178,2	92,4
Termiz sh.	16,0	116,3	16,0	115,8		
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	26,4	122,5	5,4	85,1	21,0	138,3
Angor	12,2	61,1	6,4	64,9	5,8	56,9
Bandixon	14,5	87,3	0,8	50,4	13,7	90,9
Boysun	15,4	69,4	4,5	55,2	10,9	78,2
Muzrabot	26,0	87,6	7,5	72,8	18,5	95,5
Denov	31,3	106,5	19,2	118,5	12,1	92,1
Jarqo'rg'on	15,7	65,1	4,4	43,2	11,3	81,8
Qumqo'rg'on	19,2	71,7	3,3	28,6	15,9	104,0
Qiziriq	19,6	94,0	5,2	82,0	14,4	99,3
Sariosiyo	20,6	91,5	3,7	43,5	16,9	120,3
Termiz	8,8	61,2	0,9	72,2	7,9	60,1
Uzun	20,9	97,9	10,5	107,8	10,4	90,0
Sherobod	10,7	72,9	7,0	118,8	3,7	41,9
Sho'rchi	21,3	93,0	5,6	69,6	15,7	105,8

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shмаган holatda;

– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvি o’tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **100,4** mld. so‘mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari savdosiga (**47,1** mld. so‘m) to‘g‘ri keldi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari	Mlrd. so‘m
	Yangi uzilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari 47,1
	Non va non mahsulotlari 10,4
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar) 9,3
	Tovuq go‘shti 4,1
	Quritilgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari (yong‘oq, bodom, pista va boshqalar) 8,9
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...) 3,1
	Tuxum 4,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – hashak 1,5
	Ziravorlar 4,3
	Tuzlamalar 5,5
	Gullar, o‘simlik va nihol ko‘chatlari (manzarali va qishloq xo‘jaligi) 1,8
	Nooziq-ovqat tovarlari 0,0

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd. so'm

2023- yilning yanvar oyida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarda parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra, savdo aylanmasi hajmi **178,2** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qoramollar savdosi **138,3** mlrd. so'm, qo'y va echkilar – **38,2** mlrd. so'mni, otlar – **1,2** mlrd. so'mni, parrandalar – **0,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)	Mlrd. so'm
 2 yoshdan kata bo'lgan qoramollar	87,2
 1 yoshdan 2 yoshgacha bo'lgan yosh mollar	27,4
 1 yoshgacah bo'lgan yosh mollar	23,7
 Qo'ylar	31,1
 Otlar	1,2
 Echkilar	7,1
 Kurka, o'rdak, g'oz	0,2
 Tovuqlar	0,3
 Quyonlar	0,0
 Qushlar	0,0

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2023- yil 1- fevral holatiga, umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **1 721** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevral holatiga nisbatan **151** taga oshgan va o'sish sur'ati **109,6 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **2** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **1 719** tani tashkil qildi.


2023- yilning yanvar oyida chakana tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasining ulushi **1,7 %** ni tashkil etib, **21,1** mlrd. so'mga yetdi. 2022- yilning mos davriga nisbatan **20,7 %** ga kamaydi. Bunda savdo aylanmasining **99,6 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	21,1	79,3	0,1	12,5	21,0	81,0
Termiz sh.	7,7	79,0			7,7	79,0
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	0,5	79,4			0,5	79,4
Angor	0,9	74,1			0,9	74,1
Bandixon	0,1	76,4			0,1	76,4
Boysun	0,6	88,7			0,6	88,7
Muzrabot	0,6	89,3			0,6	89,3
Denov	4,1	88,1			4,1	88,1
Jarqo'rg'on	0,7	82,1			0,7	82,1
Qumqo'rg'on	0,6	82,4			0,6	82,4
Qiziriq	0,5	79,0			0,5	79,0
Sariosiyo	0,7	84,9			0,7	84,9
Termiz	1,3	74,1	0,1	81,4	1,2	73,6
Uzun	0,5	46,9			0,5	88,2
Sherobod	1,3	78,9			1,3	78,9
Sho'rchi	1,0	75,1			1,0	75,1

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023- yil 1- fevral holatiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45- bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **159,6** mlrd. so'mni tashkil etdi va o'tkan yilning mos davriga nisbatan **18,5 %** ga o'sdi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **70,5** mlrd. so'm (o'sish sur'ati - **112,1 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari savdo hajmi – **89,1** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati – **119,0 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyoj qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'ish sur'ati, foizda



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

Hududlar kesimida ma'lumot




	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foizda
Surxondaryo viloyati	159,6	100,0
Termiz sh.	74,3	46,5
<i>tumanlar:</i>		
Oltinsoy	0,1	0,1
Angor	1,4	0,9
Bandixon		
Boysun	0,2	0,1
Muzrabot	0,1	0,1
Denov	76,6	48,0
Jarqo'rg'on	2,2	1,4
Qumqo'rg'on	0,3	0,2
Qiziriq	0,6	0,4
Sariosiyo	1,0	0,6
Termiz	0,4	0,2
Uzun	0,2	0,1
Sherobod	0,3	0,2
Sho'rchi	1,9	1,2

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Denov tumani (**76,6** mlrd. so'm) va Termiz shahri (**74,3** mlrd. so'm) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagи tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘mda



Viloyat bo‘yicha 2023- yilning yanvar oyida ulgurji savdo tovar aylanmasi **198,2** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **8,7 %** ga kamaydi.



Savdo aylanmasi ulushi



Yirik korxonalar



Mikrofirma va kichik korxonalar


Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **158,5** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **93,6 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **79,9 %** ni tashkil qildi.

ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK KORXONALARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga eng yirik korxonalar Sho'rchi (**242,4 b.**), Angor (**64,8 b.**) va Jarqo'rg'on (**3,3 b.**) tumanlarida kuzatildi.

2023- yil 1- fevral holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **2 620** tani tashkil etib, 2022- yil 1- fevral holatiga nisbatan **397** taga ko'paygan, o'sish sur'ati **117,8 %** tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxona va mikrofirmalar soni **2 583** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda	Kichik biznes va mikrofirma- lar, mlrd. so'm	2022- yil yanvar oyiga nisbatan, foizda
Surxondaryo viloyati	198,2	91,3	39,7	83,2	158,5	93,6
Termiz sh.	54,2	88,0	13,8	73,4	40,4	94,4
<i>tumanlar:</i>						
Oltinsoy	6,5	90,2	2,9	88,2	3,6	92,0
Angor	9,8	114,9	1,9	64,8 b	7,9	93,6
Bandixon	0,7	91,0			0,7	91,0
Boysun	2,2	93,0			2,2	91,9
Muzrabot	2,8	52,4	1,9	42,8	0,9	93,3
Denov	53,3	84,8	9,2	60,8	44,1	92,5
Jarqo'rg'on	18,1	116,4	5,0	3,3 b	13,1	93,4
Qumqo'rg'on	5,2	75,9	1,4	49,7	3,8	94,9
Qiziriq	2,7	94,3			2,7	94,1
Sariosiyo	13,1	94,5	0,1	35,1	13,0	96,4
Termiz	14,7	86,1			14,7	93,6
Uzun	2,4	94,8			2,4	94,0
Sherobod	4,4	94,1			4,4	94,1
Sho'rchi	8,1	162,4	3,5	242,4 b	4,6	92,1



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi**
Тел. 76-225-65-74